# I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021-yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 41 992,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020-yilning yanvar-sentabriga nisbatan o‘sish sur'ati 107,0 foizga teng bo‘ldi.

2021-yil yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyator indeksi 112,0 foizni tashkil qildi.

**Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)** - milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident - institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig‘indisi orqali hisoblanadi.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 41 128,6 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,1 foizga yuqori bo‘ldi.

**Yanvar-sentabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi**

| | *mlrd. so‘m* | | *o‘sish sur’ati, % da* |
|---|---|---|---|
| | *2020-yil* | *2021-yil* | |
| **I. Yalpi hududiy mahsulot, jami** | **35 037,6** | **41 992,3** | **107,0** |
| *shu jumladan:* | | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 34 497,2 | 41 258,4 | 107,0 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 540,4 | 540,4 | 540,4 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **34 497,2** | **41 258,4** | **107,0** |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 4 812,9 | 6 320,6 | 104,9 |
| Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda) | 25 570,8 | 30 030,7 | 107,3 |
| sanoat | 24 402,5 | 28 474,6 | 106,8 |
| qurilish | 1 168,3 | 1 556,1 | 117,2 |
| Xizmatlar | 4 113,5 | 4 907,1 | 107,6 |

| | mlrd. so‘m | | o‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|---|
| | *2020-yil* | *2021-yil* | |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 912,0 | 1 085,2 | 105,5 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari | 559,6 | 702,9 | 115,6 |
| boshqa xizmatlar | 2 641,9 | 3 119,0 | 106,6 |

**Yanvar-sentabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibi, (% da)**
**2020-yil**



**2021-yil**




2021-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining o‘sish sur’atiga ijobiy ta‘sir sanoat (106,8 foiz), qurilish (117,2 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari (115,6 foiz), savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (105,5 foiz), boshqa soha xizmatlari (106,6 foiz) tarmoqlaridagi yalpi qo‘shilgan qiymat hissasiga to‘g‘ri keldi.

YAHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 27,3 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to‘g‘ri keldi va bu ko‘rsatkich 2020-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 1,6 foizga kupaydi.

## 2021-yil yanvar-sentabr oylarida YAHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha deflyator indeksi, (% da)




## Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va mutlaq o‘sish sur’atlari

